

Adiblar xiyoboni – ma'naviyat maskani

□ O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti talabalarining Adiblar xiyoboniga tashriflari davom etmoqda.

□□Bugun Kino, televideniye va radio san'ati fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari Rustam Arolov boshchiligida fakultet talaba-yoshlari ishtirokida xiyobonda ma'naviy-badiiy tadbir tashkil etildi.

Tadbir avvalida shoir Doniyor Mirzo bilan ijodiy uchrashuv bo'lib o'tdi.

Doniyor Mirzo Muhammad Yusufning ijodi, nafaqat o'zbek adabiyoti, balki qo'shiqchilik san'atida ham alohida bosqichga aylangani, bugun ham qanchadan qancha yoshlar uning she'rini kuyga solib san'at olamiga qadam qo'yayotganini, o'zi ham bolaligida ushbu shoirning she'rlarini o'qib, yod olib adabiyotga qiziqish ortganini aytib o'tdi hamda barcha yoshlarni kitob o'qishga, o'zbek adabiyoti namoyondalari ijodiga ko'p va xo'p murojaat qilishga undadi. shuningdek, o'zining ijod namunlaridan o'qib berib yig'ilganlarni xushnud etdi.

O'z navbatida talabalar ham Muhammad Yusufning she'rlarini yoddan o'qib berdi.

□Shundan so'ng institut Yoshlar yetakchisi Izzatullo Tursunpo'latov tomonidan Zakovat intellektual o'yini tashkil etilib, fakultet talabalari o'z bilimlarini sinab ko'rish imkoniga ega bo'ldi.

□Shuningdek, tadbir sport musobaqalari bilan davom ettirildi. Unda talabalar guruhlariga bo'linib, arqon tortish, shaxmat-shashka kabi sport turlarida o'z mahoratlarini namoyish etishdi.

Rossiya Federatsiya Moskva shahrida joylashgan Butunrossiya Davlat kinematografiya universitetida «Vosxojdeniye» xalqaro talabalar festivali bo'lib o'tmoqda.

□Ayni paytda Rossiya Federatsiya Moskva shahrida joylashgan Butunrossiya Davlat kinematografiya universitetida «Vosxojdeniye» xalqaro talabalar festivali bo'lib o'tmoqda. Ushbu festivalda Mustaqil davlatlar hamdo'stligi davlatlarining ko'plab oliy ta'lim muassasalari qatorida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti delegatsiyasi ham Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor Baxtiyor Yakubov boshchiligida ishtirok etishmoqda.

□□Festival davomida institut delegatsiyasi BDKU rektori V.S.Malishev bilan uchrashuv, Rossiya Federatsiyasi xalq artisti S.Bezrukovning mahorat darsida ishtirok etib rus kinosida bo'layotgan bugungi jarayonlar, kino sohasida tahsil olayotgan talabalarga yaratilgan sharoitlar haqida ko'pgina qiziqarli ma'lumotga ega bo'lishdi.

Shuningdek, festivalga tashrif buyurgan barcha ishtirokchilar qatori delegatsiya a'zolari ham BDKUning o'quv-amaliy auditoriyalari, fakultetlari, mutaxassislik kafedralari,

kutubxona, ilmiy-tadqiqot markazi, universitet tarixi aks etgan muzey bilan tanishishdi.

Ayni kunlarda festival doirasida ishtirokchi delegatsiyalarning mutaxassislari tomonidan tayyorlangan ma'ruzalar asosida "Кинообразование: совместные образовательные проекты государств-участников стран СНГ" nomli Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya hamda talaba yoshlar ishtirokidagi ilmiy-amaliy konferensiya bo'lib o'tmoqda.

Eng asosiysi festivalning har bir ish kunida barcha qatnashchi mamlakatlar talabalari tomonidan suratga olingan filmlarning namoyishi tashkil etilib, yoshlar o'z tengdoshlarining ijod namunalari, izlanishlari bilan yaqindan tanishmoqda.

O'zaro ijodiy muloqotlar, bahs va munozaralarga boy o'tayotgan festival kinonamoyishlar, mahorat darslari bilan davom etmoqda.

TALABALARNING IJARA XONADONLARI O'RGANILMOQDA

□O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rahbariyati xususan, fakultet dekanlari tyutorlar bilan birgalikda ijara xonadonlarida istiqomat qilib kelayotgan talaba-yoshlarning yashash manzillaridagi mavjud imkoniyatlar, shart-sharoitlar hamda muammo va kamchiliklar o'rganishmoqda.

Talabalar istiqomat qilayotgan uylarning kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik holati, isitish tizimlarining mavjudligi kabi dolzarb masalalari mas'ullar tomonidan tahlil etilmoqda.

Shuningdek, o'rganish ishlari mobaynida talabalar uchun ijara

shartnomalarining tuzilganlik holati hamda bu bo'yicha xonadon egalari uchun yaratiladigan imkoniyatlar yuzasidan muloqotlar o'tkazilmoqda.

Ma'rifat ulashib

□Ma'lumki bugungi kunda yoshlar o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish va ularni adabiyotga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda "Ma'rifat ulashib" loyihasining ahamiyati yuqori bo'lmoqda.

□Bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutiga loyiha doirasida O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi. "Ma'naviy hayot" jurnali bosh muharriri Eshqobil Shukur, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, "Shuhrat" medali sohibi Farog'at Xudoyqulova hamda "Guliston" jurnali bo'lim muharriri Baxtiyor Haydar tashrif buyurdi.

Dastlab. mehmonlar isntitutning dars mashg'ulotlari, talabalar, xodimlar va professor-o'qituvchilarga yaratilgan sharoitlar bilan yaqindan tanishdi.

□Shundan so'ng institutning O'quv teatrida talabalar bilan uchrashuv tashkil etildi.

Unda yoshlar qalbida adabiyotga mehr-muhabbatni yanada kuchaytirish, ona Vatanga sadoqat tuyg'ularini kamol toptirish muhim masala ekanligi aytib o'tildi. Qizg'in va samimiy suhbatlar go'zal mushoiralarga ulanib, mehmonlar o'zlarining ijodlaridan Vatanga muhabbat, insoniy tuyg'ular aks etgan she'rlaridan namunalar o'qidilar.

Shuningdek, adabiyotga doir savollariga mehmonlar batafsil

javob berib o'tishdi.

Tadbir Toshkent viloyati Zangiota tumanida 37-sonli hamda 2-sonli umumta'lim maktablarida davom ettirildi.

Mazkur maktablarda ham adabiyot ixlosmandi bo'lgan o'quvchilar uchun o'zbek adabiyotining tarxi va buguni haqida batafsil ma'lumot berildi hamda ijodkor bo'lish istagidagi yoshlar uchun kerakli tavsiyalar berildi.

Ushbu tadbirlar ham an'anaga muvofiq mushoiralar bilan yakunlandi.

“Ustozga ehtirom!” nomli teatrlashtirilgan konsert dasturi ishtirokchilariga

Assalomu alaykum!

Barchamizga ma'lumki, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti aktyorlik, rejissyorlik, kinoteleoperatorlik, san'atshunoslik, folklor ijrochiligi, milliy qo'shiqchilik, xalq cholg'ulari ijrochiligi, madaniyatshunoslik, kutubxonashunoslik hamda madaniyat va san'at menejmenti ta'lim yo'nalishlarida yuqori malakali kadrlar tayyorlovchi yetakchi oliy ta'lim muassasalaridan hisoblanadi.

Turkiston san'at saroyida “O'qituvchi va murabbiylar kuni”ga bag'ishlangan “Ustozga ehtirom!” nomli teatrlashtirilgan konsert dasturi bu so'zlarning yana bir isboti bo'ldi, desak yanglishmaymiz.

Men, fursatdan foydalanib, ushbu dasturni tayyorlashda sahnada

va sahna ortida ishtirok etgan barcha professor-o'qituvchilar, jo'rnavozlar, ishchi-xodimlar hamda talaba-yoshlarga o'z minnatdorchiligimni bildiraman.

Zeroki, konsertda barcha ishtirokchilar o'zlarining professional hamda yuksak ijro mahoratlarini namoyon etishdi. Shuning uchun ham bu tadbir tom ma'noda san'at va madaniyat bayramiga aylandi hamda tomoshabin-u mutaxassislarning e'tirofiga sazovor bo'ldi.

Men ishonch bilan ayta olamanki, bugun ustozlari bilan bir qatorda ilk bor katta sahnaga qadam qo'ygan iste'dodli talabalarimiz, albatta, kelajakda el ardog'idagi san'atkor bo'lib yetishadi hamda eng muhimi Yangi O'zbekiston san'ati va madaniyatining yanada keng tanilishiga xizmat qiladi.

Yosh iste'dod egalarini kashf etishda institutimizning ham alohida o'rni bor. "Ustozga ehtirom!" nomli teatrlashtirilgan konsert dasturi bu boradagi dastlabki qadam bo'ldi.

Kelgusida bu kabi tadbirlarni yana ko'proq o'tkazishni hamda qamrovini yanada kengaytirishni maqsad qilganmiz.

Xususan, zamon qahramoni, jadid bobolarimiz va tarixiy qahramonlar hayoti, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning xalqimiz hayotiga ta'siri aks etgan spektakllar va teatrlashtirilgan tomoshalar sahnalashtirish, milliy va zamonaviy kuy-qo'shiqlardan iborat konsert dasturlarini tayyorlash, qisqa metrajli filmlar yaratish hamda ularni yurtimizning katta sahnalarida va chekka hududlarda namoyish etish rejalarimiz bor.

Albatta, bu kabi yuksak maqsadlarni Hurmatli Prezidentimiz tomonidan san'at va madaniyat xodimlariga yaratib berilayotgan imkoniyatlardan to'liq foydalangan holda hamda institutning fidoiy va ahil jamoasi bilan birgalikda amalga oshiramiz.

Yana bir bor teatrlashtirilgan konsert dasturining yuqori saviyada o'tishida jonbozlik ko'rsatgan har bir ishtirokchiga, shuningdek, bizni qo'llab-quvvatlagan O'zbekiston Respublikasi

Madaniyat vazirligi, Milliy teleradiokompaniya hamda Turkiston
san'at saroyi ma'muriyatiga minnatdorchilik bildiramiz.

Nodirbek Sayfullayev,
O'zbekiston davlat san'at
va madaniyat instituti rektori, professor.

**O'zbekiston davlat san'at va
madaniyat instituti rektori,
professor Nodirbek
Sayfullayevning 1-oktabr –
“O'qituvchi va murabbiylar
kuni” munosabati bilan bayram
tabrigi.**

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori,
professor Nodirbek Sayfullayevning 1-oktabr – “O'qituvchi va
murabbiylar kuni” munosabati bilan bayram tabrigi.

O'zbekiston davlat san'at va

madaniyat institutida faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchi va xodimlar uchun 1-oktabr – “O'qituvchi va murabbiylar kuni” munosabati bilan bayram tadbiri tashkil etildi.

Tadbir avvalida O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekov hamda institut rektori, professor Nodirbek Sayfullayev yig'ilganlarni bayram bilan muborakbod etdi.

So'ng, madaniyat va san'at sohasini rivojlantirish yo'lidagi islohotlar jarayonida o'z mehnatini ayamagan quyidagi professor-o'qituvchi va xodimlarga “Madaniyat va san'at fidokori” ko'krak nishonini tantanali topshirildi:

Amanulla Rizayev – “San'atshunoslik va madaniyatshunoslik” kafedrası professori, san'atshunoslik fanlari nomzodi;

Shoira Xamidova – “Dramatik teatr va kino san'ati” kafedrası dotsenti;

Manzura Yuldasheva – “Madaniyat va san'at menejmenti” kafedrası professori;

Mansur Mamirov – “Milliy qo'shiqchilik” kafedrası dotsenti;

Mahmud Rashidov – “Estrada va ommaviy tomoshalar san'ati” kafedrası professori;

Uljon Mamatqulova – O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti xodimasi;

Nurnazar Kallibekov – O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat institutining Nukus filiali “Vokal” kafedrası katta o‘qituvchisi;

Gulsanam Tursunova – O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat institutining Farg‘ona mintaqaviy filiali “Sahna nutqi va san‘atshunoslik” kafedrası dotsenti.

O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti Kengashining navbatdagi yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

→Kengashda institutda o‘quv binolari, talabalar turar joylarida ta‘lim olish uchun yetarli shart-sharoitlarning yaratilganligi, kredit-modul tizimida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish, 2024/2025 o‘quv yilida grant loyihalarini tayyorlash, ilmiy maqolalarni chop etish va institut reytingini oshirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar, 2024/2025 o‘quv yilida institutda o‘tkaziladigan xalqaro, respublika va OTM miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalar, ilmiy unvon olish uchun Oliy attestatsiya komissiyasiga hujjatlarni yuborish, kafedralardagi mavjud bo‘sh-vakant o‘rinlarga “O‘zbekiston ovozi” gazetasining 2024 yil 21 avgustdagi 33-sonida berilgan tanlov to‘g‘risida, professor-o‘qituvchilar tomonidan yozilgan adabiyotlarni Oliy

ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Muvofiqlashtiruvchi Kengashda ko'rib chiqish uchun yuborish va monografiyalarni chop qilishga tavsiya etish, talabalarining ijara xonadonlariga joylashtirilish holati kabi institut hayotiga aloqador bir qator masalalar muhokama qilindi.

□□Ushbu masalalar yuzasidan mutasaddilarning axborotlari tinglandi hamda barcha mas'ullarga tegishli topshiriqlar berildi.